

# «ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

## OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA TEXNOLOGIK TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINI MASOFAVIY O'QITISHNING ILMIIY-METODIK MATERIALLARINING MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH

**Oteniyazov Rashid Idrisovich,**  
*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi  
Toshkent axborot-texnologiyalari  
universiteti Nukus filiali, texnika fanlari  
doktori, dotsent*

**Qalmuratova Xurliman Arislanbaevna,**  
*Nukus davlat pedagogik instituti  
o'qituvchisi*


***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Oliy ta'lim muassasalarida texnologik ta'limi yo'nalishi talabalarini davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq ravishda pedagogik faoliyat olib borishga tayyor bo'lishi, yuqori nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasini ta'minlaydigan zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanishi, olingan bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llashga ularni tayyorlashi va ta'lim muassasasining ilmiy-metodik faoliyatda ishtirok etishi orqali o'qitishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish haqida ma'lumot berilgan.*

***Kalit so'zlar:** ta'lim, masofaviy o'qitish, texnika, fan, texnika, texnologiya, malaka*

Masofaviy ta'lim - masofaviy o'qitishga asoslangan ta'lim. Masofaviy o'qitish – o'z-aro ma'lum bir masofada Internet texnologiya yoki boshqa interaktiv usullar va barcha o'quv jarayonlari komponentlari – maqsad, mazmun, metod, tashkiliy shakllar va o'qitish usullariga asoslangan talaba va o'qituvchi o'rtasidagi munosabat. Masofaviy o'qitish tizimi – masofaviy o'qitish shartlari asosida tashkil etiladigan o'qitish tizimi. Barcha ta'lim tizimlari singari masofaviy o'qitish tizimi o'zining tarkibiy maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllariga ega. Masofaviy o'qitish masofaviy ta'lim kompleksidagi jarayondir. Masofaviy o'qitishning va masofaviy ta'limning o'ziga xos xususiyatlari, pedagogik tizimi, zarurligi va maqsadi mavjudligidir. Masofaviy o'qitishning har qanday tizimi – bu barcha masofaviy ta'lim tadbirlarini rejalashtirish va o'tkazish uchun, ko'pincha kunduzgi, sirtqi va kechki dasturlar bilan birgalikda foydalaniladigan tizimli axborot majmuasidir. Chet elda bunday tizimlar odatda “Ta'limni boshqarish tizimi” (Learning Management System) deb nomlanadi, bu ularning kengaytirilgan funktsionalligini va butun ta'lim muassasasi ishida muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

Ta'limni boshqarish tizimi LMS quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

- O'qitishning barcha turlarini boshqarish (elektron, kunduzgi va sirtqi).
- Bilim va ko'nikmalarni tekshirish.



# «ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍŃ INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

- Treningni tahlil qilish va natijalarni baholash.
- Tarkib va dasturlarni taqdim etish.
- O‘quv materiallari arxivi.

Hozirgi davrda ishlab chiqarishda texnika va texnologiyalarning yangilanayotganligi, ilm va fanning jadal taraqqiyoti mutaxassis kadrlardan o‘z bilimlarini mustaqil va muntazam ravishda chuqurlashtirib, yangilab, to‘ldirib va kengaytirib borishni talab etadi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni ro‘yobga chiqarish O‘zbekistonning xalqaro talablardagi zamonaviy taraqqiyotini ta‘minlay oladigan dadil, mustaqil, ijodiy tafakkurli, malakali, bilimli mutaxassis, ayni paytda shaxsiy insoniy sifatleri shakllangan barkamol kadrlarni tayyorlash maqsadini ko‘zlaydi. Yangilangan ta‘lim tizimini joriy etishda har bir bo‘lajak o‘qituvchining o‘z faniga va barkamol avlod ta‘lim-tarbiyasiga oid kasbiy kompetentligini shakllantirish va ularni pedagogik faoliyatda izchil qo‘llay bilish mahoratiga ega bo‘lishi bugungi kunning muhim talabidir. Bo‘lajak texnologik ta‘limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirish pedagogik va texnik bilimlarni fan, ta‘lim, texnika, texnologiya va ishlab chiqarish iqtisodiyoti sohalaridagi o‘zgarishlarga asoslangan integratsiyasi ta‘lim jarayonining samaradorligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Ushbu jarayon texnologik ta‘lim fani o‘qituvchisini tayyorlash mazmunini asoslash va kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasini yaratishda muayyan o‘zgarishlarni amalga oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Hozirgi kunda o‘qitishning zamonaviy yondashuvlari, tamoyillari asosida o‘qitish jarayoni elementlarini loyihalash, o‘rganishning usullari va qoidalarini individuallashtirish va intellektuallashtirish, beriladigan bilimlarni insonparvarlashtirish, o‘quv materiallarining ijodiy qabul qilinishi, qo‘llaniladigan didaktik vositalar kommunikativligi va axborotliligi, ta‘lim olishga yuqori motivatsiya uyg‘otishni ta‘minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Masofaviy o‘qitishda texnologiya fanini nazariy jihatdan o‘qitish jarayonida o‘quv materiallari texnologik ta‘lim yo‘nalishi talabalariga elektron ma‘ruza shaklida taqdim etiladi. Texnologik ta‘lim yo‘nalishi talabalari o‘quv materiallarini elektron shaklda mustaqil o‘zlashtirish jarayonida, ularga metodik yordam ko‘rsatish, maslahatlar berish individual va guruhlar aro amalga oshiriladi. O‘quv materiallarini nazariy jihatdan o‘zlashtirishda o‘z-o‘zini tekshirish, o‘z-o‘zini tuzatish, o‘quv jarayonida erishgan natijalarini boshqalar bilan muhokama qilish, tajriba almashishi bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Umumta‘lim maktabi texnologiya fani o‘qituvchilari malakasini masofaviy oshirish markazlarida





# «ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍŇ INTEGRACIYASÍ»


atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

ta'minlangan o'quv-laboratoriya jihozlarining barchasi mashg'ulotlarni sinf-dars shaklida tashkil etish va o'tkazishga mo'ljallangan. Masofaviy malaka oshirishda esa, mazkur mashg'ulotlar virtual shaklda tashkil etilishi va o'tkazilishi zarur. Agar texnologiya fanidan laboratoriya ishlari, namoyish tajribalar, ko'ylak bichish, taom tayyorlash tabiiy holatda tashkil etish va o'tkazish yo'li tanlansa - o'qituvchilar zamonaviy usullardan foydalanishni bilmay qolishadi, agar mazkur mashg'ulotlarni o'qitishni virtual shaklda tashkil etish va o'tkazish yo'li tanlansa - unda o'qituvchilar haqiqiy asbob-uskunalar bilan ishlash, ya'ni tabiiy usullardan yiroqlashadi. Masofaviy o'qitishda laboratoriya ishlari, namoyish tajribalarini talabalarga har ikkala uslubda, ya'ni ham tabiiy, ham virtual shakllarda integratsiyalashgan holda parallel o'qitish samaradorlikka erishish yo'llaridan biri hisoblanadi.

Mazkur shakllarda o'qitishning usullari mavjud:

- birinchisi – mashg'ulotning nazariy materiallarini o'rganish;
- ikkinchisi – mashg'ulotni videodars shaklida o'rganish (sinxron va asinxron ko'rinishida);
- uchinchisi – mashg'ulotni virtual shaklda amaliy bajarish, natijalarini hisoblash va tegishli xulosalar chiqarish;
- to'rtinchisi - mashg'ulotda o'zlashtirilgan bilimlarni nazorat qilish, o'z-o'zini nazorat qilish;
- beshinchisi - mashg'ulot jarayonida t'yutor yoki boshqa hamkasblaridan konsul'tatsiyalar olish va erishilgan natijalarini muhokama qilish.

Oliy ta'lim muassasalarida texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarini masofaviy o'qitishning samaradorligini ta'minlaydigan o'qitish mazmun, shakl, metod, vosita va texnologiyalarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Aynan texnologiya o'qitish metodikasi va androgogik yondashuvlar xususiyatlaridan kelib chiqib, masofaviy o'qitishning sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar aniqlashtiriladi. Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining masofaviy o'qitish mazmuni va sifatiga qo'yilgan Davlat talablari, o'quv-metodik ta'minoti, va o'quv jarayonini zamonaviy o'qitish yondashuvlari asosida takomillashtirilishi, masofaviy o'qitishning sifatini zamon talablari darajasida ta'minlash mumkinligi ilmiy-metodik jihatdan asoslanadi. Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining masofaviy o'qitilishi uchun ishlab chiqilgan o'quv-metodik ta'minot va ularni o'zlashtirish uchun turli xil mashq, topshiriqlar, nazorat ishlari, virtual metodik dasturiy vositalarning samaradorligi



# «ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

amaliyot jarayonida o‘z tasdig‘ini topadi. Masofaviy o‘qitishning kontseptual asoslari: Masofaviy o‘qitish tizimi uzluksiz ta‘lim tizimida kunduzgi, sirtqi, eksternat o‘qitish tizimlari qatorida ko‘rilishi kerak. Pedagogikaning asosiy tamoyillarini o‘zida aks ettiradigan shaxsiy yo‘naltirilgan yondoshuv dunyo pedagogik jamoalari tomonidan zamonaviy ta‘lim tizimlarining barcha shakllari uchun tan olingan. Masofaviy o‘qitish jarayonini shunday pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish lozimki, talabalarning quyidagi imkoniyatlari shakllansin:

-aniq ilmiy yoki amaliy muammolarni yechishga tadbiq eta oladigan zaruriy fundamental bilimlarni olish;

-bilish faoliyati jarayonida kelib chiqqan muammolarni do‘stlar bilan hal etish;

-qo‘yilgan masalalarni yechish uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha axborot manbalari bilan ishlash;

-barcha mavjud muammolarni bartaraf etish, egallangan bilimlarni amaliyotda qo‘llash;

-Internet texnologiyalardan foydalangan holda mustaqil kuzatishlar olib borish;

-o‘z bilim darajalarini, erishilgan yutuqlarini baholash imkoniga ega bo‘lish, o‘z faoliyatini to‘g‘rilay olish.

Masofaviy o‘qitishning pedagogik texnologiyalari– tanlangan o‘qitish konsepsiyasiga asoslangan masofaviy ta‘limning o‘quv-tarbiyaviy jarayonini ta‘minlovchi o‘qitish metodi va uslublar majmuasidir. O‘qituvchilar o‘zlarining o‘quv dasturlarini elektron ta‘limga moslashtirishga tayyor bo‘lishlari kerak. Masofaviy ta‘lim texnologiyalari yordamida nafaqat bir qator muntazam pedagogik harakatlarni kompyuter yelkasiga ko‘chirish, balki chinakam sifatli, individual, tabaqalashtirilgan ta‘limni tashkil etish ham mumkin.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D. Xodjayev, A.K.Ahmedov “Masofaviy ta‘lim platformasida o‘quv resurslarini yaratish va undan foydalanish”.- T:2020
2. Sh. M. Imomova, K. H. Qobilov “Oliy ta‘lim muassasalarida masofadan o‘qitish jarayonini takomillashtirish” Vol. 31 (2023): Miasto Przyszłości ISSN-L: 2544-980X
3. Sh. Imomova., Gulzira Mirzoyeva. Intellektual tizimlaridan foydalanish//Pedagogik mahorat. Maxsus son (2021 yil, derkabr),2021, C.230-233.
4. Muslimov N.A., Abdullaeva K.M., Mirsolieva M., «Pedagogik mahorat» fanidan o‘quv-metodik majmua. //O‘quv-uslubiy qo‘llanma. -T.: «Fan texnologiyalari», 2011. 322 b